

AZIM SUYUN IJODIDA DOSTON JANRI VA UNING POETIK TALQINI:
“IMORAT YOKI BIR TOMCHI DENGIZGA AYLANGAN KECHA”

DOSTONI MISOLIDA

Safarova Madina Vali qizi

Mustaqil izlanuvchi

E-mail: safarova178@gmail.comDOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22643733>

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Azim Suyun ijodida doston janrining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, shoirning “Imorat yoki bir tomchi dengizga aylangan kecha” dostoni misolida inson va Vatan munosabati, milliy o'zlik, ota yurt, ajdodlar xotirasi, oilaviy qadriyatlar hamda ma'naviy izlanish masalalarining badiiy talqini yoritiladi. Dostondagi epik voqeabandlik, lirik kechinma, falsafiy mushohada, ramziy obrazlar va avtobiografik unsurlar tahlil qilinib, ularning asar g'oyaviy mazmunini ochishdagi o'rni ko'rsatiladi. Shuningdek, “imorat”, “dengiz”, “kecha”, “sel” kabi obraz va timsollarning poetik-falsafiy mohiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: doston, epik tafakkur, Azim Suyun, milliy o'zlik, Vatan, ota yurt, ma'naviy qadriyat, ramziy obraz, avtobiografizm, poetik tafakkur.

Abstract: This article analyzes the specific features of the epic poem genre in the creative work of Azim Suyun, one of the prominent representatives of modern Uzbek literature. In particular, using the poet's epic poem “Imorat or the Night That Turned into a Drop of the Sea” as an example, the article examines the artistic interpretation of the relationship between the individual and the Motherland, national identity, homeland, ancestral memory, family values, and spiritual quests. The epic narrative, lyrical experiences, philosophical reflections, symbolic images, and autobiographical elements of the poem are analyzed, and their role in revealing the ideological and semantic content of the work is demonstrated. In addition, the

poetic and philosophical essence of such images and symbols as “imorat” (building), “sea,” “night,” and “flood” is revealed.

Keywords: epic poem, epic thinking, Azim Suyun, national identity, Motherland, homeland, spiritual values, symbolic image, autobiographical elements, poetic thinking.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности жанра поэмы в творчестве одного из крупных представителей современной узбекской литературы Азима Суюна. В частности, на примере поэмы «Имарат или ночь, превратившаяся в одну каплю моря» рассматривается художественная интерпретация взаимоотношений человека и Родины, национальной идентичности, отчего края, памяти предков, семейных ценностей и духовных поисков. Анализируются эпическая повествовательность, лирические переживания, философские размышления, символические образы и автобиографические элементы поэмы, раскрывается их роль в выявлении идейно-смыслового содержания произведения. Кроме того, раскрывается поэтико-философская сущность таких образов и символов, как «имарат», «море», «ночь», «селевой поток».

Ключевые слова: поэма, эпическое мышление, Азим Суюн, национальная идентичность, Родина, отчий край, духовные ценности, символический образ, автобиографизм, поэтическое мышление.

KIRISH.

Doston o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining yirik epik janrlaridan biri bo‘lib, unda xalq hayoti, tarixiy voqealar, inson taqdiri, Vatan, muhabbat, qahramonlik hamda ma’naviy-axloqiy masalalar keng ko‘lamda tasvirlanadi. Ushbu janr epik ko‘lamdorligi, voqeabandligi, obrazlar tizimining murakkabligi va badiiy umumlashtirish imkoniyatlarining kengligi bilan ajralib turadi.

Doston janrida muayyan voqea yoki hayotiy jarayon markazga qo‘yilib, u turli obrazlar, ziddiyatlar, ruhiy kechinmalar va falsafiy mushohadalar orqali rivojlantiriladi. Shu sababli dostonlarda epik tasvir bilan bir qatorda lirik va falsafiy

qatlamlar ham muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, zamonaviy dostonlarda an'anaviy epik bayon bilan inson ruhiyati, ichki kechinmalari va zamon muammolarining badiiy talqini uyg'unlashadi.

O'zbek adabiyotida doston janri xalq og'zaki ijodi zaminida shakllanib, yozma adabiyotda yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan. Alisher Navoiy, Fuzuliy singari mumtoz adabiyot vakillari bilan bir qatorda zamonaviy o'zbek shoirlari ham ushbu janr imkoniyatlarini kengaytirganlar. Ana shunday ijodkorlardan biri Azim Suyundir. Uning dostonlarida milliy ruh, inson va jamiyat munosabati, Vatan, tarixiy xotira, ma'naviy izlanish va zamon muammolari o'ziga xos poetik-falsafiy talqinda namoyon bo'ladi.

Azim Suyun dostonlarida epik va lirik tafakkur uyg'unligi. Azim Suyun ijodida doston janri alohida mavqega ega. Shoir mazkur janrning an'anaviy imkoniyatlarini saqlagan holda, uni zamonaviy poetik tafakkur bilan boyitadi. Uning dostonlarida voqealar tizimi bilan qahramonning ichki dunyosi, hayotiy tajribasi va falsafiy mushohadalari o'zaro uyg'unlashadi.

Shoirning "Imorat yoki bir tomchi dengizga aylangan kecha" dostoni ana shu jihatdan e'tiborga loyiq. Asarda inson hayoti, ruhiy izlanish, tug'ilib-o'sgan yurtga munosabat, oilaviy qadriyatlar va avlodlar davomiyligi masalalari yaxlit badiiy tizim asosida talqin qilinadi. Dostonda real hayot voqealari bilan falsafiy mushohada bir-birini to'ldirib, asarning badiiy-falsafiy mazmunini shakllantiradi.

Asarning markazida inson va borliq munosabati, ruhiy iztirob hamda ma'naviy izlanish masalalari turadi. Shoir "imorat" va "dengiz" obrazlari orqali hayot mohiyatini ramziy tarzda ifodalaydi. "Imorat" barqarorlik, bunyodkorlik, xotira va avlodlar davomiyligining ramzi sifatida namoyon bo'lsa, "dengiz" cheksizlik, inson tafakkurining kengligi va ruhiy olamning tubsiz qatlamlarini anglatadi.

Shuningdek, "kecha" obrazi ham asarda oddiy vaqt tushunchasi sifatida emas, balki insonning ichki kechinmalari, xotiralari va tafakkur jarayonini ifodalovchi

ramz sifatida namoyon bo'ladi. Demak, doston nomining o'zidayoq real va ramziy qatlamlarning uyg'unligi kuzatiladi.

Dostonda insonning tug'ilib-o'sgan maskani bilan ma'naviy bog'liqligi yetakchi mavzulardan biridir. Voqealar qahramonning o'z qishlog'iga, ota yurtiga qaytishi va u yerda imorat qurish niyatidan boshlanadi:

“Shu yil ta'tilda bola-chaqani olib, ul-bul, ko'ch-ko'ronini xaltaga solib, taranib-saranib, kerilib-serilib kindik qonim to'kilgan qishlog'im Nakurtga kechasi kelgan selday bo'lib kirib bordim. Endi rostini aytsam, bir imoratni qurish niyatim bor edi...” [4]

Ushbu parcha asarning asosiy g'oyaviy yo'nalishini anglash uchun muhimdir. Qahramonning “kindik qonim to'kilgan qishlog'im” degan ta'rifi inson va Vatan o'rtasidagi uzviy ma'naviy rishtani ifodalaydi. Bu yerda qishloq oddiy geografik makon emas, balki insonning bolaligi, ajdodlari, xotiralari va milliy o'zligi mujassam bo'lgan muqaddas maskan sifatida talqin qilinadi.

Ota yurtda imorat qurish harakati ham oddiy maishiy ehtiyojdan yuqori ma'no kasb etadi. Imorat qurish orqali qahramon o'z ildizlariga qaytadi, ajdodlar xotirasini tiklaydi va kelajak avlod bilan ma'naviy bog'liqlikni mustahkamlaydi. Shu jihatdan imorat obrazi insonning tarixiy xotirasi va avlodlar davomiyligining ramziy ifodasiga aylanadi.

Dostonda qahramonning oilasi bilan qishloqqa qaytishi ham bejiz emas. Farzandlarning ota yurt bilan tanishtirilishi, ularning milliy muhitga olib kirilishi oila va Vatan tushunchalarining o'zaro uyg'unligini ko'rsatadi. Demak, muallif uchun milliy qadriyatlar avloddan avlodga o'tadigan ma'naviy meros sifatida talqin qilinadi.

Milliy urf-odat va qadriyatlarning badiiy ifodasi. Dostonda qishloq hayoti, oilaviy muhit va imorat qurish bilan bog'liq urf-odatlarning tasviri milliy mentalitetning muhim jihatlarini ochib beradi. Qahramon onasi bilan suhbatlashar ekan, imorat qurishni boshlashdan avval oqsoqollar va yaqinlarni chaqirish, maslahatlashish, marosim o'tkazish zarurligi haqida fikr yuritadi:

“Ikki-uch oqsoqolni, besh-olti yor-birodarlaringni chaqir, bir qo‘y so‘y – otang ruhi ham shod bo‘ladi, kengash qil – kengashli ish bitmay qolmaydi...” [5]

Mazkur lavhada o‘zbek xalqining jamoaviylik, maslahatlashuv, kattalarga hurmat, ajdodlar xotirasiga ehtirom kabi qadriyatlari o‘z ifodasini topgan. “Kengashli ish bitmay qolmaydi” xalqona iborasi orqali muallif xalq tafakkurida jamoaviy fikr va hamjihatlikning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Bu jihat dostonidagi milliy ruhni kuchaytiradi. Muallif milliy qadriyatlarni bevosita targ‘ib qilish bilan cheklanmay, ularni oddiy hayotiy vaziyatlar, oilaviy suhbatlar va xalqona qarashlar orqali tabiiy tarzda tasvirlaydi. Natijada asarda milliy kolorit va hayotiylik kuchayadi.

Azim Suyun dostonining muhim poetik xususiyatlaridan biri ramziy obrazlarning serqatlam ma’noga egaligidir. “Imorat”, “dengiz”, “kecha”, “sel” kabi obrazlar asarning g‘oyaviy mazmunini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

“Imorat” obrazi, avvalo, inson bunyodkorligi va barqarorlik timsolidir. Biroq uning ma’nosi bundan kengroq. Imorat insonning o‘z ildizlariga qaytishi, o‘zidan keyingi avlodga iz qoldirishi va tarixiy xotirani davom ettirishi ramziga aylanadi.

“Dengiz” esa cheksizlik va ruhiy olam timsolidir. “Bir tomchi dengizga aylangan kecha” birikmasida kichik va ulkan, cheklangan va cheksiz tushunchalari qarama-qarshi qo‘yiladi. Bir tomchi orqali butun dengizning ifodalanishi inson ruhiyatidagi cheksiz imkoniyatlarni anglatishi mumkin.

“Kecha” obrazi esa ruhiy holat va tafakkur jarayonini ifodalaydi. Kecha sukunat, xotira, ichki kechinma va mushohada uchun qulay makon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli dostonning badiiy-falsafiy mazmunini tushunishda ushbu ramzlarning o‘zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dostonidagi obrazli ifodalardan biri “qishlog‘im Nakurtga kechasi kelgan selday bo‘lib kirib bordim” jumlasidir. Ushbu o‘xshatish qahramonning ota yurtiga qaytish holatini kuchli emotsional bo‘yoqda ifodalashga xizmat qiladi.

Sel tabiatan shiddat bilan keladigan, katta kuchga ega tabiiy hodisa. Muallif aynan shu obraz orqali qahramonning uzoq yillik sog'inchdan so'ng tug'ilib-o'sgan maskaniga kuchli hayajon va jo'shqinlik bilan qaytganini ko'rsatadi.

Bu tashbeh faqat harakatning tezligi yoki shiddatini emas, balki qahramonning ichki ruhiy holatini ham ifodalaydi. Ota yurtga bo'lgan sog'inch, bolalik xotiralari, ajdodlar bilan bog'liqlik va Vatanga mehr bir nuqtada mujassamlashadi. Natijada oddiy hayotiy voqea poetik obraz orqali umumlashtiriladi.

Shu jihatdan "sel" obrazi Azim Suyunning individual poetik tafakkurini ko'rsatuvchi muhim badiiy vositalardan biridir. Shoir real hayot hodisasidan foydalanib, inson qalbidagi kuchli ruhiy to'lginni ifodalashga erishadi.

"Imorat yoki bir tomchi dengizga aylangan kecha" dostonida avtobiografik unsurlar ham salmoqli o'rin tutadi. Asarda muallif hayotiga yaqin bo'lgan voqealar, tug'ilib-o'sgan qishloq, oila a'zolari, ona siymosi, bolalik xotiralari va ota bilan bog'liq xotiralar tasvirlanadi.

Avtobiografik unsurlar asarning hayotiylik va samimiylik darajasini oshiradi. O'quvchi voqealarni shunchaki badiiy to'qima sifatida emas, balki ijodkorning shaxsiy hayot tajribasi bilan bog'liq kechinmalar sifatida qabul qiladi.

Ayniqsa, ona obrazi orqali milliy xotira va xalqona donishmandlik ifodalanadi. Onaning maslahatlari, maqol va matallardan foydalanishi, ajdodlar ruhiga hurmat bilan munosabatda bo'lishi xalqning ko'p asrlik ma'naviy tajribasini o'zida mujassam etadi.

Shu jihatdan ona obrazi dostonning ma'naviy markazlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat qahramonning onasi, balki milliy xotira va qadriyatlarning davomchisi sifatida gavdalanadi.

Dostonning muhim g'oyaviy qatlamlaridan biri inson, Vatan va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy munosabatdir. Qahramonning ota yurtga qaytishi o'zligini anglash jarayoni bilan chambarchas bog'liq.

Asarda Vatan tushunchasi keng ma'noda talqin qilinadi. Vatan – inson tug'ilib-o'sgan joy, ota-bobolari yashagan maskan, bolalik xotiralari saqlanadigan muqaddas makon va kelajak avlodga qoldiriladigan ma'naviy merosdir.

Shu ma'noda imorat qurish ham ramziy xarakterga ega. Qahramon o'z yurtida uy qurish orqali nafaqat yashash uchun makon yaratadi, balki o'zining mavjudligini, ildizlarini va avlodlar bilan bog'liqligini mustahkamlaydi.

Dostonning mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, insonning o'zligini anglashi, avvalo, uning o'z ildizlarini bilishi va tarixiy xotiraga munosabati bilan bog'liq. O'z tarixini, ota makonini va milliy qadriyatlarini unutmagan inson ma'naviy jihatdan barqaror bo'ladi.

XULOSA.

Azim Suyunning “Imorat yoki bir tomchi dengizga aylangan kecha” dostoni zamonaviy o'zbek dostonchiligining o'ziga xos namunalaridan biri sifatida inson va Vatan, shaxs va tarix, avlod va milliy xotira munosabatlarini badiiy-falsafiy talqin etishi bilan ahamiyatlidir.

Asarda epik voqeabandlik lirik kechinmalar va falsafiy mushohadalar bilan uyg'unlashgan. Shoir oddiy hayotiy voqealar orqali chuqur ma'naviy mazmun yaratadi. Ota yurtga qaytish, imorat qurish, oila davrasidagi suhbatlar, ona nasihatleri va bolalik xotiralari insonning o'z ildizlariga qaytishi g'oyasini badiiy ifodalashga xizmat qiladi.

Dostondagi “imorat”, “dengiz”, “kecha” va “sel” kabi obrazlar asarning ramziy-falsafiy qatlamini boyitadi. Ayniqsa, “imorat” obrazi bunyodkorlik, xotira, avlodlar davomiyligi va o'zlik ramzi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. “Sel” tashbehi esa qahramonning ota yurtiga bo'lgan sog'inchi va ruhiy hayajonini ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Umuman, Azim Suyun dostonlarida milliy o'zlik, Vatanga muhabbat, ajdodlar xotirasi, oilaviy birlik va ma'naviy qadriyatlar o'zaro uyg'un holda tasvirlanadi. Shoirning epik tafakkuri real hayot manzaralari, avtobiografik lavhalar, xalqona ifodalar va ramziy obrazlar bilan boyitilgan. Shu jihatdan uning dostonlari

zamonaviy o'zbek adabiyotida insonning ma'naviy olami va milliy o'zligini badiiy tadqiq etuvchi muhim asarlar sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Suyun, Azim. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1996. – B. 30.
2. Yo'ldoshev, Qozoqboy. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 26.
3. Doston // O'zbekcha Vikipediya. – Elektron manba.
4. Nasrullayev E. The Enlightenment Of Navoi: A New Era And A New Interpretation // International Journal of Literature and Languages. – 2023. – T. 3. – №. 01. – C. 10–17.
5. Mardanov R. G. Shoir lirik she'riyatida xabar mavzusidagi g'azal va baytlar mazmuni haqida // Экономика и социум. – 2024. – №. 12-1 (127). – C. 225–229.